

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI

SAYFIYEVA XAMIDA DJURAYEVNA

**MITOXONDRIYALAR Ca^{2+} -BOG‘LIQ MEGAPORASIGA AYRIM
POLIFENOL BIRIKMALARNING TA’SIR MEXANIZMI**

03.00.02 – Biofizika va radiobiologiya

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sayfiyeva Xamida Djurayevna

Mitoxondriyalar Ca^{2+} -bog‘liq megaporasiga ayrim polifenol birikmalarning ta’sir mexanizmi.....3

Сайфиева Хамида Джураевна

Механизм действия некоторых полифенольных соединений на Ca^{2+} -зависимые мегапоры митохондрий.....21

Sayfieva Khamida Djuraevna

The mechanism of action of some polyphenolic compounds on Ca^{2+} -dependent mitochondrial megapores39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.B.01.13 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIOFIZIKA VA BIOKIMYO INSTITUTI

SAYFIYEVA XAMIDA DJURAYEVNA

**MITOXONDRIYALAR Ca^{2+} -BOG‘LIQ MEGAPORASIGA AYRIM
POLIFENOL BIRIKMALARNING TA’SIR MEXANIZMI**

03.00.02 – Biofizika va radiobiologiya

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B387 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Biofizika va biokimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ibb-nuu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashev Nurali A’zamovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Mirxamidova Parida
biologiya fanlari doktori, professor
Fayziyev Diyor Davronovich
biologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.B.01.13 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko‘chasi, 174-uy. Tel.: (99871) 246-68-96).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universiteti Biofizika va biokimyo instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko‘chasi, 174-uy. Tel.: (99871) 246-68-96, e-mail: ibb-nuu@mail.ru; mamurjon2281@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sabirov Ravshan Zairovich

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., akademik

Pozilov Ma’murjon Komiljonovich

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d., professor

Axmedjanov Iskandar Gulyamovich

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda o'simliklardan ajratib olinadigan biologik faol moddalar asosida tayyorlanadigan dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Keyingi yillarda ushbu biologik faol moddalarning turli patologiyalardagi hujayraviy va subhujayraviy jarayonlarga ta'siri keng ko'lamda o'rganilmoqda. Xuddi shunday o'simlik biologik faol moddalari hisoblanuvchi polifenollar o'simliklar olamida keng tarqalgan birikmalardan hisoblanib, ularning hozirda 8000 dan ortiq turlari aniqlangan. O'simliklardan ajratib olingan biologik faol moddalar turli patologik jarayonlarni davolashda qo'llaniluvchi samarali farmakologik preparatlarni yaratishda istiqbolli manbalar hisoblanadi. Xuddi shunday, polifenol birikmalarning ta'sir mexanizmlarini aniqlash va farmakologik xossalarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, polifenol moddalarning gepatoprotektor, kardioprotektor, sitoprotektor hossalari baholash hamda ularning antioksidant va membranafaol xususiyatlarini aniqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki polifenol moddalar organizm antioksidant himoya tizimini qo'llab-quvvatlovchi asosiy moddalar hisoblanadi. Ushbu biologik faol moddalarning subhujayraviy ta'sir mexanizmlarini o'rganish holda, ularning organizmga ta'sirini baholash mumkin. Shu bois hozirgi vaqtda polifenol moddalarning turli hujayraviy va subhujayraviy jarayonlarga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda antioksidant xususiyatlarga ega bo'lgan tarkibida polifenol moddalar saqlagan dori vositalarini yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada tozalik darajasi yuqori bo'lgan polifenollarni o'simliklardan ajratib olishning zamonaviy usullari ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida¹ "...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, sitoprotektor faollikka ega polifenol moddalarning ta'sir mexanizmlarini aniqlash, optimal dozalarini baholash va davolash amaliyotiga tadbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida polifenol moddalarning hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiluvchi antioksidant xossasi tadqiq etilgan (Rudrapal et al., 2022). Klinik oldi sinovlarining ko‘rsatishicha, polifenollar qandli diabet sharoitida jigar mitoxondriyalari disfunktsiyasini korreksiya qilishi (Da Porto et al., 2021), eksperimental gepatit sharoitida qondagi aminotransferazalar faolligini, jigar mitoxondriyalari funksional holatini tiklashi (Teixeira et al., 2019) aniqlangan. Shuningdek, polifenollarni ozuqa tarkibida yetarli darajada iste‘mol qilinishi DNK metillanishini me‘yorida saqlab, biologik qarishni ma‘lum darajada kamaytirishi ko‘rsatilgan (Yaskolka Meir et al., 2023).

MDH davlatlarida Olennikov D.N. va uning hamkasblari polifenollarning hepatoprotektor xususiyatlarini tadqiq qilgan holda ellagitaninlarni ko‘proq oshqozonda, nisbatan kamroq holda ichakda hazm bo‘lish jarayonida fenollar, gallatlar, ellagik kislota hosil bo‘lishi ko‘rsatilgan bo‘lib, chebulin va chebulin kislotasidan ichak mikrobiomi ta‘sirida aniqlangan (Olennikov et al., 2015). Polifenol agrimoniinning yuqori antioksidantlik va saratonga qarshi faolligi ko‘rsatilgan. Ushbu tanin mitoxondriyalarga bog‘liq apoptozni faollashtirib, 10 mkM konsentratsiyada K562 va HeLa saraton hujayralarida megaporani ochiq holatga o‘tkazib, suksinatga bog‘liq oksidlanishli fosforlanishni stimullashi va 2,6-dixlorfenolindofenol elektronlar akseptorini tiklashi aniqlangan (Fedotcheva et al., 2021). Agrimoniin eksperimental diabetda ichakda α -glyukozidazani ingibirlanishiga olib kelishi, qonda glyukoza va glikozillangan gemoglobin miqdorini kamaytirishi, insulin va gemoglobin miqdori tiklanishi ko‘rsatilgan bo‘lib, gipoglikemik dori vositasida qo‘llash tavsiya etilgan (Kashchenko et al., 2017; 2023).

Respublikamizda akademik T.S.Saatov va uning shogirdlari tomonidan eksperimental qandli diabetni davolashda euforbin, punitan va gossitan polifenollarining ta‘siri bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, professor M.I.Asrarov va uning shogirdlari tomonidan in vitro va in vivo tadqiqotlarda turli polifenol birikmalarning antioksidant tizimga hamda mitoxondriyal funksional parametrlariga ta‘siri o‘rganilib kelinmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zMU huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti molekulyar biofizika laboratoriyasining “Inson va hayvonlarning patologik holatlari va kasalliklarining in vitro va in vivo imitatsion modellarini ishlab chiqish” (2021-2024-yy.) yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Plantago lanceolata* L. o‘simligidan ajratib olingan polifenol 2-DVG - 2-O-bis-digalloil-4,6-valoneil- β -D-glyukoza, *Plantago major* L. o‘simligidan ajratib olingan ksilopir-T (geksagidroksidifenoil-1-(O-2-O-galloil- β -

D-glyukopiranozid)-1-(O-β-D-ksilopiranozid) va glyukopir-T (geksagidroksidifenoil-1-(O-β-D-glyukopiranozid)-2-(O-4-D-galloil-β-D-glyukopiranozid)), *Euphorbia franchetii* o'simligidan ajratib olingan EGKG (Epigallokatexingallat) polifenol birikmalarini kalamush jigar mitoxondriyalari Ca²⁺-bog'liq megaporasiga ta'sirini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

in vitro tajribalarda polifenol birikmalarining (2-DVG, ksilopir-T, glikopir-T va EGKG) antioksidant hamda antiradikal xossalarini aniqlash;

in vitro tajribalarda kalamush jigar mitoxondriyalari megaporasiga polifenol birikmalarining suksinat (rotenon bilan) bog'liq ta'sirini asoslash;

in vitro tajribalarda kalamush jigar mitoxondriyalari megaporasiga polifenollarning piruvat-malat substratlariga bog'liq ta'sirini aniqlash;

in vitro tajribalarda kalamush jigar mitoxondriyalari megaporasiga polifenollarning glutamat-malat substratlariga bog'liq ta'sirini dalillash;

in vitro tajribalarda kalamush jigar mitoxondriyalarining megaporasiga polifenollarning alfa-glitserofosfat substratiga bog'liq ta'sirini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida yetuk erkak kalamushlar, kalamush jigar mitoxondriyalari, mitoxondriyalar megaporasi va polifenol birikmalar (2-DVG, ksilopir-T, glyukopir-T va EGKG) olingan.

Tadqiqotning predmeti. Kalamush jigar mitoxondriyalarini funksional parametrlari, polifenol birikmalarining membranafaol xossalari va ularning substratlarga bog'liq holda megaporasiga ta'siridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarilishida biofizika, fiziologiya va biokimyoda keng qo'llaniladigan differensial sentrifugalash, fotometriya va spektrofotometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

2-DVG, ksilopir-T, glikopir-T va EGKG polifenollarining *in vitro* tajribalarda MDA hosil bo'lishini kichik mikromol konsentratsiyalarda ingibirlashi hamda DFPG radikali bo'yicha antiradikallik xossasini ko'rsatib, yuqori antioksidant va antiradikal faollikni namoyon qilishi aniqlangan;

2-DVG, ksilopir-T, glyukopir-T va EGKG polifenollari kalamush jigar mitoxondriyalari ichki membranasining Ca²⁺-bog'liq nospetsifik o'tkazuvchan megaporasini ochiq holatga o'tishini FAD-bog'liq substratlar ishtirokida ingibirlashi ko'rsatilgan bo'lib, bunda 2-DVG polifenoli boshqa o'rganilgan polifenollarga nisbatan mitoxondriyalar megaporasiga 100 mkM gacha bo'lgan konsentratsiyada yuqori ingibirlovchi ta'sirini namoyon qilgan;

2-DVG, ksilopir-T, glyukopir-T va EGKG polifenollari NAD-bog'liq substratlar ishtirokida kalamush jigar mitoxondriyalari Ca²⁺-bog'liq megaporasini yuqori faollik bilan ingibirlashi ko'rsatilgan;

2-DVG, ksilopir-T, glikopir-T va EGKG polifenollari mitoxondriyalar Ca²⁺-bog'liq megaporasini suksinatli (rotenon bilan) muhitda uning maxsus ingibitori hisoblangan SsA ning yarim maksimal ingibirlovchi konsentratsiyasi ishtirokida 2-DVG va ksilopir-T polifenollari 50 mkM konsentratsiyada 75 % atrofida ingibirlanishiga olib kelgan bo'lsa, EGKG esa 100 mkM konsentratsiyada 82 %ga

va glyukopir-T polifenoli esa 200 mkM konsentratsiyada 87 %ga ingibirlashi ko'rsatilgan bo'lib, o'ziga xos yuqori natijalarni namoyon qilishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

2-DVG, ksilopir-T, glikopir-T va EGKG polifenollari kuchli antioksidant hamda antiradikal xossalari mavjudligi hisobiga ular turli patologiyalar natijasida kelib chiquvchi oksidativ stress holatlarida mitoxondriyalardagi energetik metabolismm buzilishlarini korreksiya qilgan holda va mitoxondriyalardagi Ca^{2+} -bog'liq megaporaga nafas zanjirining NAD- va FAD-bog'liq substratlari ishtirokida ingibirlovchi ta'sir ko'rsatib, istiqbolda samarali sitoprotektor dori vositalari yaratishga asos bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarda fiziologik va biofizik tadqiqot usullarini qo'llash orqali olinganligi bilan tasdiqlanadi. Olingan natijalarni qayta ishlashda o'rtacha qiymatning ishonchlilik interval qiymatlarini (Styudent mezon) hisobga olgan holda Origin 6.1 kompyuter dasturi yordamida statistik tahlil qilingan. Olingan natijalarning isboti ularning retsenziyalangan ilmiy nashrlarda chop etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati polifenollarning Ca^{2+} -bog'liq o'tkazuvchan megapora holatiga ta'sir mexanizmlarini yoritish ularning mitoxondriyalarda darajasida organizmga ta'siri haqidagi zamonaviy ilmiy tasavvurlarni yanada kengaytirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, polifenollarning kalamush jigari mitoxondriyalari funksional holatiga (antioksidant va membranafaol) ta'sirining aniqlanishi yangi sitoprotektor dori vositalarini yaratish uchun ilmiy asos bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Polifenollarning kalamush jigari mitoxondriyalari megaporasini substratlarga bog'liq ta'sir mexanizmi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Plantago major L. o'simligidan ajratib olingan geksagidroksidifenoil-1-(O- β -D-glyukopiranozid)-2-(O-4-D-galloil- β -D-glyukopiranozid) va geksagidroksidifenoil-1-(O-2-O-galloil- β -D-glyukopiranozid)-1-(O- β -D-ksilopiranozid) polifenollarining *in vitro* sharoitda membranafaol xossalari bo'yicha natijalardan A-MZ 2019-41 raqamli "Sho'rlangan tuproqlarda ildiz tizimining mahsuldorligi va hosildorligini oshirish uchun shirinmiya o'stirish texnologiyasini ishlab chiqish" amaliy loyihada sho'rlangan tuproqlarda yetishtirilgan shirinmiyaning mahsuldorligi va tarkibiy jihatdan biologik faolligini oshirishi baholangan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 2-fevraldagi № 4/17-4/4-1642-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sho'rlangan tuproqlarda shirinmiya o'stirish texnologiyasini ishlab chiqishda uning mahsuldorligini va kimyoviy tarkibini tavsiflash imkonini bergan;

polifenol birikmalarining farmakologik xossalari asosida A-MZ 2019-41 raqamli "Sho'rlangan tuproqlarda ildiz tizimining mahsuldorligi va hosildorligini oshirish uchun shirinmiya o'stirish texnologiyasini ishlab chiqish" amaliy loyihada o'zida yuqori biofaol birikmalar saqlovchi shirinmiya o'simligini o'stirishda

foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 2-fevraldagi № 4/17-4/4-1642-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, optimal ozuqa muhitlarini tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga erishilgan;

2-DVG polifenoli in vitro sharoitda jigar mitoxondriyalari megaporasiga (mPTP) ingibirlovchi va malon dialdegid hosil bo'lishini kamaytirishi bo'yicha olingan natijalardan "The project of Medical Center at Training & Research Institute – Jeramba Ilmu Sukses" loyihada membranafaol birikmalarni aniqlashda foydalanilgan (University of Gothenburg Research Center of Molecular and Clinical medicine, Sweden 2023-yil 13-fevraldagi ma'lumotnomasi). Natijalarni qo'llanilishi asosida o'simliklardan samarali sitoprotektor xossaga ega polifenollarni ajratib olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobotsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 16 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi Scopus bazasidagi jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil qilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmetlari tavsiflangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Polifenollarning ta'sir mexanizmlari va mitoxondriyalar Ca^{2+} bog'liq megaporasi haqidagi zamonaviy qarashlar"** deb nomlangan birinchi bobida polifenollar va ularning organizmga ta'siri tahlil qilingan. Bundan tashqari, mitoxondriyalar megaporasi haqidagi zamonaviy adabiyot ma'lumotlari bayon etilgan.

Tadqiqotning **"Mitoxondriyalar antioksidant holati va mitoxondriyalarda Ca^{2+} -bog'liq megapora holatini tekshirish usullari"** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot materiallari va ularning umumiy tavsifi, tadqiqotlarni olib borish tartibi, ularni bajarishda foydalanilgan materiallar, usullar hamda qo'llanilgan o'simlik polifenollari – gidrolizlanuvchi taninlar keltirilgan. Jumladan, *Plantago* va *Euphorbia* o'simliklaridan ajratib olingan 2-DVG, ksilopir-T, glyukopir-T va EGKG polifenollari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tajribalarda differensial sentrifugalash usulidan, antiradikallik faolligi, antioksidantlik faolligi mitoxondriyalarda Fe^{2+} /askorbat orqali chaqirilgan lipidlarning perekisli oksidlanish (LPO) jarayonida malondialdegid (MDA) hosil bo'lishi, Ca^{2+} ga bog'liq mitoxondriyalari megaporasi holati turli nafas substratlariga bog'liq holatda spektrofotometrik usulidan foydalanilganligi yoritilgan. Shuningdek, mitoxondriyalarda oqsil miqdorini aniqlash hamda olingan natijalarni statistik qayta ishlash uslubi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“*In vitro* tajribalarida polifenollarning kalamush jigari mitoxondriyalari antioksidant tizimiga va mitoxondriyalari megaporasiga ta'siri**” deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilgan polifenollarning antioksidantlik va antiradikallik xossalari, jigar mitoxondriyalari megaporasi o'tkazuvchanligiga ingibirlovchi ta'siri tadqiq qilingan.

MDA hosil bo'lishini polifenollar bilan korreksiyalash. Ma'lumki, lipidlar fiziologik jarayonlar uchun zarur bo'lgan birikmalar bo'lib, ular membrana butunligini ta'minlashda, energiya manbai sifatida, hujayralarda kechayotgan proliferatsiya, metabolizm, yallig'lanish va apoptoz jarayonlarini boshqarishda signal molekulasi sifatida ishtirok etadi. Mitoxondriyalari LPO natijasida ularning butunligi va funksiyasi izdan chiqadi. Mitoxondriyalari maxsus fosfolipid kardiolipinning oksidlanishi va biologik faol lipidlarning hosil bo'lishi mitoxondriyalardagi LPO jarayonining natijasi bo'lib, apoptoz, energiya ishlab chiqarilishi, mitofagiya va immun jarayonlarda muhim o'rin tutishi ko'rsatilgan (Xiao et al., 2017). Bunda mitoxondriyalarning nafas zanjirida elektronlarning tashilishi, ion-transport almashinuv jarayonlari, Ca^{2+} ionlari balansi, hujayralardagi metabolik jarayonlarning kechishi va boshqa jarayonlar LPO jarayonlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularning patologik o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, LPO mahsulotlari endogen antioksidant tizim transkripsiyasini boshqarilishida ishtirok etishi ko'rsatilgan (Anderson et al., 2012). Adipotsit oldi hujayralari davriy ravishda yog' kislotalarining sitotoksik ta'siriga uchraydi. Ushbu holatni uzoq muddat davom etishi siklosporin A (SsA) sezgir mitoxondriyalari ichki membranasi permeabilizatsiyasini chaqiradi, bu esa, o'z navbatida, mitoxondriyalari membrana potensialini, kislorod iste'molini va ATF sintezlash qobiliyatini kamayishiga olib kelishi ta'kidlangan (Rogers et al., 2014).


Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, organizmda kelib chiqadigan kasalliklar LPO jarayoni natijasida rivojlanishi mumkin ekan. Hozirgi vaqtda oksidativ stress keltirib chiqaradigan LPO jarayonini ingibirlash, membranaviy buzilishlarni oldini olish maqsadida o'simliklardan ajratib olingan polifenol birikmalarning ta'sir mexanizmlarini va antioksidantlik xossalari o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bois olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimizda o'simliklardan ajratib olingan polifenollar – 2-DVG, ksilopir-T, glyukopir-T va EGKG polifenollarining kalamush jigar mitoxondriyalari hosil bo'luvchi LPO jarayonining oxirgi mahsulotlaridan biri MDA miqdorining o'zgarishiga ta'siri o'rganildi.

Ma'lumki, Fe^{2+} /askorbat ta'sirida mitoxondriyalari bo'kadi va ularning hajmi ortadi. Turli kasalliklarda mitoxondriyalari membranasi labilligi ortib,


mitoxondriyalar membrana potentsiali pasayadi, bunda nafas zanjiri I kompleksining ingibirlanishi, qisman kompensatsiya hisobiga II kompleksning superfaollashuvi kuzatiladi. Bu murakkab disbalans holati mitoxondriyalar matriksida va shu bilan birga hujayra sitozolida kislorod faol shakllarining hosil bo'lishiga olib kelib, glutation zahirasini kamaytiradi va LPO jarayonini kuchayishiga sabab bo'luvchi omillardan ekanligi qayd etilgan (Abeti et al., 2016).

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, *in vitro* tajribalarda ksilopir-T polifenolining turli konsentratsiyalari ta'sirida Fe^{2+} /askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi MDA hosil bo'lish jarayoniga ingibirlovchi ta'siri keltirilgan (1-rasm, A). Ksilopir-T polifenoli Fe^{2+} /askorbat orqali chaqirilgan kalamush jigar mitoxondriyalaridagi LPO jarayonida MDA hosil bo'lishini 1 mkM konsentratsiyada nazoratga nisbatan $13,9 \pm 3,1$ %ga ingibirlashi aniqlandi. Ushbu polifenolning 2, 4 va 6 mkM konsentratsiyalari ta'sirida Fe^{2+} /askorbat orqali chaqirilgan mitoxondriyalardagi LPO jarayonida MDA hosil bo'lishini nazoratga nisbatan mos ravishda $58,8 \pm 3,9$ %, $81,9 \pm 1,2$ % va $93,1 \pm 0,8$ %ga ingibirlashi ko'rsatildi.


A



B



C



1-rasm. Fe^{2+} /askorbat bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi LPO jarayonida MDA hosil bo'lishiga ksilopir-T (A), glyukopir-T (B) va 2-DVG (C) polifenollarining ta'siri. Izoh: Ordinata o'qida – Fe^{2+} /askorbat ta'sirida mitoxondriyalardagi MDA hosil bo'lishini ingibirlanishi ko'rsatilgan, abssissa o'qida – ksilopir-T, glyukopir-T, 2-DVG ning qo'llanilgan konsentratsiyalari ifodalangan. Inkubatsiya muhiti – 125 mM KCl, 10 mM tris-HCl, pH 7,4. (** - $P < 0,01$, *** - $P < 0,001$; n=5).

Keyingi tadqiqotlarda Fe^{2+} /askorbat ta'sirida chaqirilgan LPO jarayonida kalamush jigar mitoxondriyalaridagi MDA hosil bo'lishiga glyukopir-T polifenolining turli konsentratsiyalarining ta'siri o'rganildi (1-rasm, B). Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, glyukopir-T Fe^{2+} /askorbat ta'sirida kalamush jigar mitoxondriyalarida LPO jarayoni natijasida MDA hosil bo'lishini 1 mkM konsentratsiyada nazoratga nisbatan $19,0 \pm 2,2$ %ga kamaytirishi aniqlandi. Ushbu polifenolning 2 mkM konsentratsiyasi ta'sirida jigar mitoxondriyalarida LPO natijasida MDA hosil bo'lishini nazoratga nisbatan $51,8 \pm 2,1$ %gacha ingibirlanishi aniqlandi. Shuningdek, ushbu polifenolning 4 va 6 mkM konsentratsiyalari ta'sirida kalamush jigar mitoxondriyalarida LPO jarayoni natijasida MDA hosil bo'lishini nazoratga nisbatan mos ravishda $79,4 \pm 1,7$ % hamda $91,0 \pm 0,7$ %ga ingibirlanishi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu polifenol birikma ham yuqori antioksidantlik xususiyatiga ega ekan.

Keyingi tajribalarda mitoxondriyalar membranasida induktorlar Fe^{2+} /askorbat ta'sirida chaqirilgan LPO jarayonida MDA hosil bo'lishiga 2-DVG polifenolining ta'siri o'rganildi (1-rasm, C). Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, 2-DVG polifenolining 1 mkM konsentratsiyasi ta'sirida Fe^{2+} /askorbat ta'sirida chaqirilgan LPO jarayonini $25,0 \pm 2,8$ %ga, 2 mkM konsentratsiyada esa $50,0 \pm 2,1$ %ga, 3 mkM konsentratsiyada $60,0 \pm 1,9$ %ga hamda 4 mkM konsentratsiyada esa induktorlar bilan chaqirilgan mitoxondriyalardagi MDA hosil bo'lishini $75,0 \pm 1,8$ %ga va nihoyat polifenolning 5 mkM konsentratsiyasi ta'sirida Fe^{2+} /askorbat ta'sirida chaqirilgan LPO jarayonini $85,0 \pm 1,1$ %ga ingibirlab, o'ziga xos antioksidantlik xossasini namoyon qildi.

Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, xuddi shunday boshqa polifenol birikmalar, xususan, flavonoidlar, 1-o-galloil-6-o-bisgalloil-2,4-valenoil- β -D-glyukoza va boshqa polifenol birikmalar yuqori antioksidantlik xossalarini namoyon qilgan (Asrarov i dr., 2015; Gayibov et al., 2019; Ho et al., 2020). Bunda o'rganilgan polifenollar mitoxondriyalarda Fe^{2+} /askorbat ta'sirida chaqirilgan LPO jarayonini ingibirlashi ko'rsatilgan. Ushbu polifenollar ham 10 mkM konsentratsiyagacha miqdorda Fe^{2+} /askorbat ta'sirida chaqirilgan LPO jarayonini 90 %dan ortiq holatda ingibirlab, yuqori antioksidantlik xossasini namoyon qilishini ko'rsatilgan.

Polifenollar turli tabiiy ozuqa moddalari orqali organizmga tushuvchi birikmalar bo'lib, ular, ayniqsa, meva va sabzavotlarda juda ko'p miqdorda uchraydi. Ular organizmning antioksidant tizimini barqarorlashtirib turadi. Aniqlanishicha, meva-sabzavot iste'mol qilgan ayollar ko'krak sutining erta davrida umumiy polifenollar miqdori va umumiy antioksidant sig'imi yuqoriligi ko'rsatilgan, lekin boshqa ko'rsatkichlarda, xususan, laktatdegidrogenaza faolligida, MDA miqdorida va og'ir metallarni saqlash darajasida keskin o'zgarishlar kuzatilmaganligi aniqlangan (Poniedzialek et al., 2018). Kofe tarkibidagi polifenollarning odam plazmasi tarkibidagi lipoperoksidativ mahsulotlarning hosil bo'lishiga qarshi samarasi o'rganilganda aniqlanganki, ovqatlanishdan keyin oshqozondan postprandial MDA ni qon plazmasiga so'rilishini ingibirlashi ko'rsatilgan (Sirota et al., 2013). Aniqlanishicha, astrotsit hujayralarini 20-50 mkM miqdorda tret-butildidroksinon (tBHQ), resveratrol yoki kurkumin bilan ishlov berish

Nrf2 (nuclear factor erythroid 2 p45-related factor 2 – eritroid yadro omili 2 p45-bog‘langan omil 2) yadro translokatsiyasi va NADPH-xinonoksidoreduktaza (NXOR) faolligini oshirishi ko‘rsatilgan. Agar ozuqa muhitida astrotsit hujayralari bo‘lmaganda esa ushbu birikmalar vodorod peroksid yig‘ilishini chaqirishi aniqlangan. Shu bilan birga, hujayralarni glutation yoki metmioglobin bilan ishlov berganda Nrf2 translokatsiyasi va NXOR faolligi kamayishi dalillangan. Bunda keltirilgan Nrf2 omili hujayralarning antioksidant himoya tizimini kuchaytiruvchi omil hisoblanadi (Erlank et al., 2011).

Polifenollar oshqozonda, ingichka ichakda va yo‘g‘on ichakda LPO jarayonini, organizmdagi makromolekulalarni nofermentativ glyukoza bilan bog‘lanish oxirgi mahsulotlarini va lipidlar oksidlanishining oxirgi mahsulotlarini hosil bo‘lishi hamda so‘rilishini hamda postprandial oksidativ stressning oldini olishi ko‘rsatilgan. Lekin polifenollarni organizmga ta’sir mexanizmlarini o‘rganish hali oxirigacha yetmaganligi keltirilgan. Ular qonga juda kam miqdorda so‘riladi. Aniqlanishicha, polifenollar qon plazmasida nanomol miqdorda vodorod peroksidni hosil qilib, ekzogen holatda hujayra va to‘qimalarda signal omillarini faollashtirishi ko‘rsatilgan. Oziq-ovqat bilan polifenollarni iste’mol qilish organizmning oksidlanish-qaytarilish gomeostazini tiklaydi va odam salomatligini yaxshilaydi (Kanner, 2020).

Polifenollarning jigar mitoxondriyalari megaporasiga suksinatli substratga bog‘liq holatda ta’siri. Mitoxondriyalardagi Ca^{2+} ionlari turli funksiyalarni bajarishda, xususan, ATF ni ishlab chiqarilishini va metabolizmini nazorat qilishda, hujayra signalizatsiyasini va hujayra o‘limini boshqarishda ishtirok etishi ko‘rsatilgan (Deak et al., 2015; Mammucari et al., 2018). Bundan tashqari, mitoxondriyalarning Ca^{2+} ionlariga to‘yinishi hujayra sitozolida Ca^{2+} ionlarini yig‘ilishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, sitozolda Ca^{2+} ionlari miqdorining ortishi mitoxondriyalarni Ca^{2+} ionlari bilan haddan tashqari to‘yinishi hamda boshqa omillar, ya’ni birinchi navbatda oksidativ stress, fosfat ionlarning yuqori konsentratsiyasi, adenin nukleotidlarning past konsentratsiyasi mitoxondriyalar megaporasini ochiq konformatsion holatga o‘tishiga olib keluvchi omillardan hisoblanadi. Buning natijasida mitoxondriyalar membranasi 1500 Da gacha bo‘lgan har qanday molekulani o‘tkazuvchi megapora aylanadi (Briston et al., 2017; Halestrap, 2009; Mammucari et al., 2018; Neginskaya et al., 2019). Mitoxondriyalar membrana potentsiali pasayadi, mitoxondriyalarda kislorod faol shakllarining ishlab chiqarilishi ortadi hamda ATF sintezi kamayadi va natijada apoptoz sodir bo‘ladi. Apoptozni sodir bo‘lishida ma’lum miqdordagi sitoxrom c mitoxondriyalardan ajralib chiqadi, inozitol(1,4,5) trifosfat retseptori orqali Ca^{2+} ionlarini o‘tkazilishini ta’minlaydi. Shundan so‘ng hujayra sitozolidagi yuqori Ca^{2+} miqdori hujayraning boshqa mitoxondriyalaridan sitoxrom c ni chiqishini ko‘paytirib, kaspaza va nukleazalarni faollashtiradi hamda apoptotik signalni kuchaytirishi ko‘rsatilgan (Boehning et al., 2003; Mammucari et al., 2018).

Suksinat-induksiyalagan membrana potentsialiga bog‘liq elektronlarni qaytar tashilishi mitoxondriyalarni megapora ochilishiga sezgirligini oshiradi.


Mitoxondriyalar megaporasi chaqirgan membrana potensialining depolyarizatsiyasi suksinat ta'sirida elektronlarni qaytar tashilishini ingibirlaydi. I kompleks bilan boshqariluvchi nafas jarayoni mitoxondriyalar megaporasini ochilishi bilan susayadi, biroq II kompleks bilan bog'liq substratlar ishtirokida faolligi saqlanadi va bu mitoxondriyalar matriksidan NADH siriqishi hisobiga I kompleks ta'minlovchi nafas jarayoni ingibirlanishi bilan muvofiqlashadi. Nafas zanjirining III kompleksida hosil bo'luvchi kislorod faol shakllari mitoxondriyalar megaporasi ochilishiga mitoxondriyalarni sezuvchanligini oshirmaydi. Shunday qilib, hujayraning metabolik oqimi va metabolik muhiti mitoxondriyalardagi Ca^{2+} ionlarini haddan tashqari yig'ilishiga mitoxondriyalarning funksional javobini ta'minlashi ko'rsatilgan (Briston et al., 2017).

Ma'lumki, o'simliklardan ajratib olingan biologik faol birikmalarning kimyoviy modifikatsiyasi ularning membranafaol xususiyatlarining o'zgarishi bilan kechadi. Shu sababli, tadqiqotlarimizda 2-DVG polifenolining 25, 50, 75 va 100 mkM konsentratsiyalarini mitoxondriyalar nafas zanjiri substrati suksinat (5 mM) bilan rotenon (2 mkM) ishtirokidagi inkubatsion muhitda Ca^{2+} -bog'liq SsA sezgir megaporasi holatiga ta'sirini o'rgandik (2-rasm, A). Ko'rinib turibdiki, Ca^{2+} ionlari ishtirokisiz va biologik faol birikmalar ta'sirisiz inkubatsiya muhitiga kalamush jigar mitoxondriyalari qo'shilganda hech qanday reaksiya ko'rsatmadi. Tadqiqotlarni davom ettirgan holda inkubatsiya muhitiga 10-50 mkM Ca^{2+} ionlarini qo'shish mitoxondriyalarning kuchli bo'kishini keltirib chiqardi. Bu holat mitoxondriyalar tashqi membranasining parchalanishiga, membranalara bo'shliqdan proapoptik oqsillarning va sitoxrom c ning muhitga chiqishiga sabab bo'ladi (Kinnally et al., 2011; Weiss et al., 2003). Bu esa, o'z navbatida, hujayralarning o'limiga olib keladi. Shundan so'ng o'rganayotgan obyektimiz haqiqatdan ham mitoxondriyalar megaporasi ekanligini tasdiqlash uchun inkubatsion muhitga megaporaning spetsifik ingibitori hisoblangan SsA dan 1 mkM qo'shib tadqiqotlarni davom ettirdik va ushbu o'rganayotgan obyektimiz haqiqatdan ham mitoxondriyalar megaporasi ekanligini ko'rsatdi. Mitoxondriyalar megaporasi bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirgan holda 2-DVG polifenolining 25 mkM konsentratsiyasi Ca^{2+} -bog'liq SsA sezgir mitoxondriyalar megaporasini $10,3 \pm 2,6$ %ga ingibirlanishi aniqlandi. Polifenolning 50 mkM konsentratsiyasi ta'sirida kalsiy ionlari chaqirgan mitoxondriyalar bo'kishini nazoartga nisbatan $34,3 \pm 4,1$ %ga ingibirlashi dalillandi. 2-DVG polifenolining 75 mkM konsentratsiyasi ta'sirida esa mitoxondriyalardagi SsA sezgir megaporani kalsiy ionlari ishtirokida yuqori amplitudali ochiq konformatsion holatga o'tishini nazoratga nisbatan $72,4 \pm 4,1$ %ga ingibirlashi ko'rsatildi. Polifenol moddaning 100 mkM konsentratsiyasi ta'sirida esa mitoxondriyalar megaporasi holatini nazoratga nisbatan $84,5 \pm 2,8$ %ga ingibirlashi aniqlandi. Bunda 2-DVG polifenolining jigar mitoxondriyalari megaporasini yarimmaksimal ingibirlovchi (IC_{50}) konsentratsiyasi $\text{IC}_{50} = 60,0 \pm 3,5$ mkM ni tashkil etdi.


Keyingi tajribalarda kalamush jigar mitoxondriyalari SsA-sezgir nospetsifik Ca^{2+} -bog'liq mitoxondriyalar megaporasiga nafas zanjiri substrati suksinat (rotenon

bilan) ishtirokidagi inkubatsion muhitda polifenol ksilopir-T ning 50, 100, 150 va 200 mkM konsentratsiyalarining ta'sirini tadqiq etdik (2-rasm, B).


A




B



C



D



2-rasm. 2-DVG (A), ksilopir-T (B), glyukopir-T (C) va EGKG (D) polifenollarining turli konsentratsiyalarini jigar mitoxondriyalari Ca^{2+} -bog'liq megaporasiga suksinat substratiga bog'liq ta'siri. IM (mM): saxaroza – 200, KH_2PO_4 – 1, suksinat – 5, Ca^{2+} -EGTA-bufer – 0,02, HEPES – 20, tris-HCl – 20, rotenon – 0,002, pH 7,2 (* - $P < 0,05$, ** - $P < 0,01$; *** - $P < 0,001$; $n=5$).

Dastlab jigar mitoxondriyalari megaporasining holati xuddi 2-DVG bilan olib borilgan tajribalardagi singari induktor Ca^{2+} ionlari va blokator SsA bilan tadqiqotlar olib borildi. Ksilopir-T polifenolining 50 mkM konsentratsiyasi ta'sirida induktor yordamida mitoxondriyalari megaporasining konformatsion ochiq holatga o'tishini nazoratga nisbatan $18,4 \pm 2,5$ %ga ingibirlashi aniqlandi. Ushbu polifenolning 100 mkM konsentratsiyasi ta'sirida jigar mitoxondriyalari megaporasining Ca^{2+} ionlari ishtirokida yuqori amplitudali ochiq konformatsion holatga o'tishini nazoratga nisbatan $41,3 \pm 6,0$ %ga ingibirlashi ko'rsatildi. Polifenolning 150 mkM konsentratsiyasi ta'sirida esa mitoxondriyalari megaporasini nafas zanjiri substrati suksinatli muhitda induktor ishtirokidagi ochiq konformatsion holatga o'tishini nazoratga nisbatan $46,9 \pm 7,1$ %ga ingibirlashi aniqlandi. Nihoyat polifenolning 200 mkM konsentratsiyasi ta'sirida induktor Ca^{2+} ionlari ishtirokida kalamush jigar mitoxondriyalari megaporasini yuqori amplitudali ochiq konformatsion holatga

o'tishini nazoratga nisbatan $67,6 \pm 4,8$ %ga ingibirlashi aniqlandi. Ushbu polifenolning jigar mitoxondriyalari megaporasini yarimmaksimal ingibirlovchi konsentratsiyasi $IC_{50} = 167,6 \pm 5,2$ mkM ni tashkil etdi.


Keyingi tadqiqotlarda kalamush jigar mitoxondriyalari SsA sezgir Ca^{2+} -bog'liq mitoxondriyalar megaporasiga suksinatli (rotenon bilan) inkubatsiya muhitida polifenol glyukopir-T ning 50, 100, 150 va 200 mkM konsentratsiyalarining ta'sirini tadqiq etdik (2-rasm, C). Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, glyukopir-T polifenoli 50 mkM konsentratsiyada 10-50 mkM miqdordagi Ca^{2+} bilan chaqirilgan kalamush jigar mitoxondriyalari bo'kishini nazoratga nisbatan $6,1 \pm 6,8$ %ga ingibirlashi aniqlandi. Glyukopir-T polifenolining yuqoriroq 100 mkM konsentratsiyasi esa mitoxondriyalar megaporasini nazoratga nisbatan $13,2 \pm 1,1$ %ga ingibirlashi ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu polifenolning 150 va 200 mkM konsentratsiyalari ta'sirida kalamush jigar mitoxondriyalari megaporasini nazoratga nisbatan mos ravishda $22,6 \pm 2,5$ % hamda $32,5 \pm 0,6$ %ga ingibirlashi aniqlandi. Ko'rinib turibdiki, glyukopir-T polifenoli yuqorida o'rganilgan ikki polifenolga nisbatan kalamush jigar mitoxondriyalari megaporasiga juda ham sust ingibirlovchi ta'sir etishi ko'rsatildi. Shuning uchun o'rganilgan konsentratsiyalarda glyukopir-T polifenolining jigar mitoxondriyalari megaporasini yarimmaksimal ingibirlovchi konsentratsiyasini aniqlash imkoniyati bo'lmadi.

